



KOMMUNIKATIV SINTAKSISDA ILOVA HODISASI GAPNING SEMANTIK BO‘LINISH VOSITASI SIFATIDA

Bo'riyev Dilmurod Arzimurod o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Tillar kafedrasida stajyor-assistenti

Annotatsiya. Maqolada kommunikativ sintaksisda gapning semantik bo‘linish vositasi sifatida ilova hodisasining ifodalanishi haqida fikr yuritilib, ilova konstruksiyalar katta imkoniyatlarga ega bo‘lishi orqali gap ma’nosining juda nozik semantik va ekspressiv ottenkalarini yetkazishga qodir bo‘lishi, ularning ba’zilar muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi, boshqalari esa qo‘shimcha tafsilotlar xususiyatiga ega bo‘lib, muallifning niyatiga muvofiq asosiy ifoda komponentlarining ma’nosini kuchaytirish yoki aniqlash imkoniga ega bo‘lishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ sintaksis, ilova hodisasi, asosiy ifoda, ilovali element, sintaktik aloqa, gapning semantik bo‘linishi, rema.

Kirish.

Hozirgi davrda ingliz tili sistema sifatida o‘ziga xos xususiyati dialogda qanday namoyon bo‘lsa, monologda ham shunday namoyon bo‘ladigan, tilning eksplikativ va implikativ tendensiyalarini tasvirlaydigan gapning funksional modellarining ma’lum bir ko‘rinishlariga ega bo‘lmoqda. Bu bog‘liqlikda ilova hodisasi deb nomlangan yangi sintaktik hodisani tadqiq qilish zarurati paydo bo‘ladi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda yuqorida ilova hodisasi mazmun-mohiyatining noaniqligi to‘g‘ri ko‘rsatib berilgan.

Ilova hodisasi deganda gapning alohida nostandart qismi ko‘rinishida mustaqil kommunikativ ma’noga ega bo‘ladigan gap bo‘laklaridan birining ajralishi ro‘y beradigan gap tuzish tamoyili tushuniladi. Ilovali element gapda emotsionallik, ekspressivlik, stilizatsiya (gapni biror uslubga solish) kabi muhim qo‘shimcha axborotlarni beradi va asosiy ifoda bilan bog‘lanishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi [1; 182 – 183-b.].

Ilova konstruksiyalarni an’anaviy strukturaviy-semantik yondashuv doirasida tahlil qilish maxsus (“avval aytilganlarga qo‘shimcha”) bog‘lovchi ma’noni ifodalashga xizmat qiluvchi ilova konstruksiya modelini asoslashga yordam beradi. “Avval aytilganlarga qo‘shimcha”, qo‘shimcha qilish, to‘ldirish ma’nosi “ongda darhol paydo bo‘lmaydi”, butun konstruksiyaning shaxsiy semantikasiga qo‘shiladi va ikki tomonlama tabiatni tashkil etuvchi “bog‘lovchi munosabat” sifatida talqin qilinishi mumkin.

Ilova konstruksiyalar katta imkoniyatlarga ega: ular ma’noning juda nozik semantik va ekspressiv ottenkalarini yetkazishga qodir; ularning ba’zilar muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, boshqalari qo‘shimcha tafsilotlar xususiyatiga ega, yana biri esa muallifning niyatiga muvofiq asosiy ifoda komponentlarining ma’nosini kuchaytiradi yoki aniqlaydi.

Matnda ilovali elementlarni qo‘llashdan asosiy maqsad – nutqqa o‘ziga xos semantik va ekspressiv-stilistik ma’no nozikliklarini berish, gapning ma’lum bir bo‘laklariga semantik va emotsional ma’no berishdan iborat [3; 27-b.].

Tadqiqot materiali ilova konstruksiyalarning quyidagi asosiy semantik guruhlarini aniqlash imkonini beradi: semantik ma’noning kengayishi bilan sof bog‘lovchi ma’noga ega bo‘lgan ilova konstruksiyalar:

And, finally, it’s not a sin to remember that changing the (worse) symbolism will not increase the number of apartments for military personnel, and their salaries will not increase. (Mansfield K.)



Ilova konstruksiyalar bog‘lanishdan tashqari yana qo‘shimcha ma’ nolarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan:

to‘ldiruvchi: *Now the people have become wiser and more careful, they have not believed in thimble-makers for a long time. But even the edulis do not sleep (Mitchell M.);*

kengaytiruvchi: *Their son was a local policeman. And he was extremely honest and principled (Mansfield K.);*

aniqlashtiruvchi: *The heads of my friends, and mine too, were then occupied not only by their own thoughts. But also by those drawn from other publications (Mansfield K.);*

izohlovchi va aniqlovchi: *As a professionally curious person. I visited this quarter, and at the very titular time - 18.30 (Mitchell M.);*

jamlovchi va umumlashtiruvchi: *The rest of the communication is a second comment. That’s all (Mitchell M.);*

kuchaytiruvchi: *And Claudia - do you think he didn’t love England either?! And how I loved it - to the point of convulsions, in my opinion! (Mansfield K.);*

cheklovchi-gradatsion: *Johnson, her roles were believed. Not only because she always played brightly and juicily. But also because for the public she was “at home” (Mitchell M.);*

qiyoslovchi: *The first two stages of the championship took place in Kanada. And this is an expensive event for the Quebec racing team (Mansfield K.);*

muqobil: *The appetite was finally interrupted by the message that the additives in yoghurts are imported. And the production lines are either ours or foreign (Mansfield K.);*

natijaviy: *One phone call. And I’m a specialist in a different profile (Mitchell M.);*

saralovchi va sifatlovchi: *The police said that the girl is from a dysfunctional family. And is not an angel (Mansfield K.);*

to‘siqsiz: *But still, if the city authorities would take care of planting their pyramidal counterparts. At least it would be easier to breathe (Mitchell M.).*

Kommunikativ sintaksis nuqtai nazaridan ilovali elementlar asosiy ifodaga nisbatan rema vazifasini bajaradi. Rema ikki tomonlama funksional yo‘nalishga ega: “gap ichida mavzuga qarama-qarshi qo‘yiladi, gapdan tashqarida atrofidagi boshqa gaplarning remalari bilan semantik munosabatlarga kiradi; shu bilan birga rematik dominant hosil qiladi” [2; 205-b.]. Gapping aktual bo‘linishi aspektidagi ilova konstruksiyalar rematik dominantni ifodalash vositasi bo‘lishi mumkin.

Demak, ilova konstruksiyalar ham semantik mazmuni, ham funksional maqsadi jihatidan xilmalidir. Ilova konstruksiya orqali muallif adresatga bevosita ta’sir qiladi, kitobxon e’tiborini tortadi va shu bilan uni muallif uchun zarur bo‘lgan ushbu ma’lumotni ma’lum darajada idrok etishga, shuningdek, aniq intellektual harakatlarga undaydi. Ushbu funksiyalarni bajaradigan matnga ilova konstruksiyaning kiritilishi uni yanada, muallifning individual niyatiga mos, aniq va yorqinroq qilish imkonini beradi.

Bizningcha, ilova konstruksiya yozuvchi niyatiga mos ravishda boshqa xarakterdagi qo‘shimcha ma’lumotlarni yetkazish maqsadida gap tuzilmasiga kiritilgan binar strukturaviy-semantik kommunikativ birlikdir.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ilova hodisasi o‘ziga xos shakl sifatida matnda yuzaga kelishi mumkin, ba’zi hollarda esa uni nutq universalisasi deb hisoblashga ham imkoniyat berish kerak. Ilova hodisasi nutqni shakllantirishning formal-struktur va intonatsion-semantik aspektlarining nisbiy mustaqilligini, til va nutq birliklarining assimetriyasini yaqqol ajratib ko‘rsatadi. Kommunikativ sintaksisning elementi sifatida ilova hodisasi bosh gapping semantik bo‘linish vositasi sifatida qaraladi. Chunki ilovali elementlar logik urg‘uni beradi va rematik elementlar rolini bajaradi, ular, shuningdek, nutq ta’sirchanligi vositasi ham sanaladi. Bosh gapping strukturasi soddalashtirib, ilovali element



matn tuzishning o‘ziga xos usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Kommunikativ va ekspressiv funksiyasi tufayli ilovali element nutqning turli uslublarida qo‘llanishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка. -М., 1990. - 300 с.
2. Ваулина Т.Л. Об интонационных средствах выражения присоединения в русской лингвистике // Наука - вуз - школа : сб. науч. тр. молодых исследователей / под ред. З.М. Уметбаева, А.М Колобовой, Е.В. Гавриловой. -Магнитогорск: МаГУ, 2008. - Вып. 13. - С. 204-209.
3. Mamasoliev I.U. Hozirgi nemis tilida ilovali elementlar semantikasiga doir // “So‘z san’ati” xalqaro jurnali. 4-jild, 4-son. -Toshkent 2021. - B. 26-31.